
FVV ogohlantiradi: yong'indan ehtiyot bo'ling

Mamlakatimiz iqtisodiyoti yildan – yilga rivojlanib bormoqda. Hayotimizni har xil texnika va texnologiyalarsiz, ularning beminnat yordamisiz tasavvur etishimiz qiyin. Oliy ma'lumotli muhandisidan tortib uy bekasigacha, katta sinf o'quvchisidan tortib endigina bolalar bog'chasiga qatnay boshlagan go'dakkacha kundalik turmushdagi maishiy texnikalardan foydalanadi. Demakki, biz xammamiz har kuni bir necha marotabalab yong'in keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarni boshimizdan kechiramiz.

Ammo, insonlar olovdan foydalanishda oddiy bo'lib tuyulgan qoidalarga amal qilmasligi oqibatida hamon bu tilsiz yovdan aziyat chekib kelmoqda. Tahlillarga ko'ra Farg'ona shahar hududida sodir bo'layotgan yong'inlarning to'qson foizi beparvolik oqibatida kelib chiqqan. Farg'ona shaharida 2020 yilning 28 aprely kuniga jami 34 ta yong'in sodir bo'lgan. Yong'inlarda haloq bo'lganlar 1 nafar -2020 yil 6 fevraly kuni Farg'ona shahar, Navro'z MFY, B.Marg'iloniy ko'chasidagi xonadonning 25 m² maydonida yong'in sodir bo'lgan. Yong'in natijisida uy egasi fuqaro G.M. tutundan zaharlanib voqea joyida halok bo'lgan. Yong'inning taxminiy sababi ochiq elektr isitish vositasi yaqinida yonuvchi mahsulotlar ko'p miqdorda bo'lganligidan aniqlandi. Tan jarohati olganlar 1 nafar- 2020 yil 12 aprely kuni Farg'ona shahar Sovurbuloq MFY, Sovurbuloq ko'chasida yashovchi fuqaro T.I. o'z yashash uyida yengil alanga oluvchi suyuqlikdan foydalanishda ehtiyotsizligi oqibatida 45% quyib tan jarohati olgan. Yong'inlar oqibatida yetkazilgan moddiy zarar 179.221.000 so'mni tashkil etgan. Shu sababli Farg'ona shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari shahar hududida joylashgan korxonalar, tashkilot va mahallalarda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish maqsadida turli uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda.

Hurmatli fuqarolar! Siz "tilsiz yov" ta'siridan aziyat chekib qolmay desangiz va xonadoningizda yong'in sodir bo'lmasligi uchun quyidagi yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qiling va doimo yodda tuting:

- nosoz gaz va elektr tarmoqlaridan foydalanmang;
- yosh bolalarni pech, gaz va elektr asboblarini yoqishiga hamda ulardan foydalanishiga yo'l qo'ymang;
- yosh bolalarni yolg'iz qoldirmang;
- uxlashdan oldin va uydan chiqib ketishdan oldin gaz hamda elektr asboblarini o'chirishni unutmang;
- mutassadi tashkilotlar ruxsatisiz gaz asboblarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib o'rnatmang;
- gaz o'tkazish uchun vaqtinchalik quvurlardan va rezina shlanglardan foydalanmang;
- ochiq olovdan foydalanishda ehtiyot choralarini ko'ring;
- isitish mavsumidan oldin barcha isitish qurilmalarini texnik ko'rikdan o'tkazing;
- pechlarni, gaz va elektr isitish asboblarini yoqilgan holda qarovsiz qoldirmang;
- yong'in sodir bo'lganda 101ga qo'ng'iroq qiling.

Aziz xamyurtlar! Yuqorida qayd etilgan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etib, yong'inlarning oldini olishdagi ishlarni hamkorlikda olib borsak o'ylaymanki, uy-joyimizni, mol-mulkimizni, o'zimiz va farzandlarimizni yong'in ofatidan asrab qolamiz.

R.Xolmatov,

Farg'ona shahar FVB boshlig'i

o'rinbosari podpolkovnik

Мамлакатимиз иқтисодиёти йилдан – йилга ривожланиб бормоқда. Ҳаётимизни ҳар хил техника ва технологияларсиз, уларнинг беминнат ёрдамисиз тасаввур этишимиз қийин. Олий маълумотли муҳандисдан тортиб уй бекасигача, катта синф ўқувчисидан тортиб эндигина болалар боғчасига қатнай бошлаган гўдаккача кундалик турмушдаги маиший техникалардан фойдаланади. Демакки, биз хаммамиз ҳар куни бир неча маротабалаб ёнғин келтириб чиқариши мумкин бўлган ҳолатларни бошимиздан кечирамиз.

Аммо, инсонлар оловдан фойдаланишда оддий бўлиб туюлган қоидаларга амал қилмаслиги оқибатида ҳамон бу тилсиз ёвдан азият чекиб келмоқда. Таҳлилларга кўра Фарғона шаҳар ҳудудида содир бўлаётган ёнғинларнинг тўқсон фоизи бепарволик оқибатида келиб чиққан. Фарғона шаҳрида 2020 йилнинг 28 апрель кунига жами 34 та ёнғин содир бўлган. Ёнғинларда ҳалок бўлганлар 1 нафар - 2020 йил 6 февраль кунини Фарғона шаҳар, Наврўз МФЙ, Б.Марфилоний кўчасидаги хонадоннинг 25 м² майдонида ёнғин содир бўлган. Ёнғин натижисидан уй эгаси фуқаро Г.М. тутундан заҳарланиб воқеа жойида ҳалок бўлган. Ёнғиннинг тахминий сабаби очиқ электр иситиш воситаси яқинида ёнувчи маҳсулотлар кўп миқдорда бўлганлигидан аниқланди. Тан жароҳати олганлар 1 нафар - 2020 йил 12 апрель кунини Фарғона шаҳар Совурбулоқ МФЙ, Совурбулоқ кўчасида яшовчи фуқаро Т.И. ўз яшаш уйида енгил аланга олувчи суюқликдан фойдаланишда эҳтиётсизлиги оқибатида 45% қуйиб тан жароҳати олган. Ёнғинлар оқибатида етказилган моддий зарар 179.221.000 сўмни ташкил этган. Шу сабабли Фарғона шаҳар Фавқуллодда вазиятлар бўлими ходимлари шаҳар ҳудудида жойлашган корхона, ташкилот ва маҳаллаларда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш, содир бўлиши мумкин бўлган ёнғинларнинг олдини олиш мақсадида турли учрашувлар ўтказиб келмоқда.

Ҳурматли фуқаролар! Сиз “тилсиз ёв” таъсиридан азият чекиб қолмай десангиз ва хонадонингизда ёнғин содир бўлмаслиги учун қуйидаги ёнғин хавфсизлиги қоидаларига қатъий амал қилинг ва доимо ёдда тутинг:

-носоз газ ва электр тармоқларидан фойдаланманг;

-ёш болаларни печь, газ ва электр асбобларини ёқишига ҳамда улардан фойдаланишига йўл қўйманг;

-ёш болаларни ёлғиз қолдирманг;

-ухлашдан олдин ва уйдан чиқиб кетишдан олдин газ ҳамда электр асбобларини ўчиришни унутманг;

-мутассади ташкилотлар рухсатсиз газ асбобларини бир жойдан иккинчи жойга кўчириб ўрнатманг;

-газ ўтказиш учун вақтинчалик қувурлардан ва резина шланглардан фойдаланманг;

-очиқ оловдан фойдаланишда эҳтиёт чораларини кўринг;

-иситиш мавсумидан олдин барча иситиш қурилмаларини техник кўриқдан ўтказинг;

-печларни, газ ва электр иситиш асбобларини ёқилган ҳолда қаровсиз қолдирманг;

- ёнғин содир бўлганда 101га қўнғироқ қилинг.

Азиз ҳамюртлар! Юқорида қайд этилган муаммолар ва камчиликларни бартараф этиб, ёнғинларнинг олдини олишдаги ишларни ҳамкорликда олиб борсак ўйлайманки, уй-жойимизни, мол-мулкимизни, ўзимиз ва фарзандларимизни ёнғин офатидан асраб қоламиз.

Р.Холматов,

Фарғона шаҳар ФВБ бошлиғи

ўринбосари подполковник

2020-04-29 18:48:04